

O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq va Suv Xo'jaligi Vazirligi  
Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya  
Instituti

# ELEKTROMAGNIT TO'LQINLAR

*Mavzusi bo'yicha FIZIKA fanidan*  
**TAQDIMOT**

<i>Rahbar:</i>	Tashtanova M.
<i>Bajardi:</i>	GM fakulteti SXM 1/6
<i>guruhaning nomi:</i>	Norqulov A.


- Reja:
  - 1. Elektromagnit to'lqinlar. Elektromagnit to'lqinlar tarqatish va qabul qilish.
  - 2. Elektromagnit to'lqinlarning xossalri.
  - 3. Elektromagnit to'lqinlarining differentsial tenglamasi.
  - 4. Elektromagnit to'lqin energiyasi. Umov-Poynting vektori.
  - 5. Elektromagnit to'lqinlarni qo'llanilishi. Elektromagnit to'lqin shkalasi.

## ■ **Tayanch so'z va iboralar:**


- Tebranish konturi, rezonator, elektromagnit to'lqin, energiya, yorug'lik nurlanishi, to'lqin tezligi, Gers vibratori.

■ **Elektromagnit to'lqinlar. Elektromagnit to'lqinlarni tarqatish va qabul qilish.** Agar fazoning biror kichik sohasida davriy o'zgaruvchi elektr va magnit maydonlar vujudga keltirilsa, bu maydonlarning o'zgarishlari fazoning boshqa soxalarida ham takrorlanadi. Davriy ravishda o'zgaruvchan bu elektromagnit maydonning biror tezlik bilan fazoda taraqlishi elektromagnit to'lqin deb ataladi. Ma'lumki G'altak va Kondensator dan iborat tebranish konturida elektr va magnit maydon energiyalarining bir biriga aylanishlari sodir bo'ladi. Bunday konturni, odatda berk tebranish konturi deb ataladi va unda energiyaning juda oz qismigina kontur atrofidagi fazoda elektromagnit to'lqin sifatida tarqaladi. Tebranish konturi **ochiroq qilib yasalsa**, ya'ni vujudga keladigan o'zgaruvchan elektr maydon konturni xar taraflama o'rab oladigan qilib yasalsa, konturning to'lqin tarqaluvchanligini oshirish mumkin (1-rasm).



- Gertsning bu qurilmasi Gerts vibratori deyiladi. Vibrator induktor yordamida zaryadlanadi. Elektromagnit to'lqinlarining qayd qilish uchun vibratordan biror masofa uzoqlikda qabul qiluvchi - rezonator (R) qo'yiladi. 2-rasm Rezonator vibratorga o'xshash qurilma bo'lib, elektromagnit to'lqinlarning o'zgaruvchan maydoni ta'sirida unda **induksion tok** vujudga keladi.



$$W = \frac{1}{2} C q^2$$



$$W = \frac{1}{2} L q^2$$



1-Расм



2-расм

## ■ Elektromagnit to'lqinlarning xossalari.

Ma'lumki davriy ravishda o'zgaruvchi elektromagnit maydonning tarqalishini elektrnomagnit to'lqin deb ataladi. Elektromagnit to'lqinni shunday ikki o'zaro perpendikulyar tekisliklarda yotuvchi sinusoidalar shaklida tasvirlash mumkinki, bunda to'lqin shu ikki tekislik kesishishi natijasida xosil bo'lgan chiziq bo'y lab tarqaladi. Maksvell ta'limotiga asosan, elektrnomagnit to'lqinning biror muxitda tarqalish tezligi shu muxitning elektr va magnit xususiyatlariga bog'liq bo'lib, uning qiymati quyidagi munosabat bilan aniqlanadi.

$$\vartheta = \frac{1}{\sqrt{\mu_o \epsilon_o} \cdot \sqrt{\mu \epsilon}} \quad (1)$$

- Vakuumda muxitning magnit sindiruvchanligi va dielektrik singdiruvchanliga birga teng. SHuning uchun vakuumda elektromagnit to'lqinning tarqalish tezligi

$$\vartheta_0 = \frac{1}{\sqrt{\mu_0 \epsilon_0}} = \frac{1}{\sqrt{4\pi \cdot 10^{-7} \cdot 8,85 \cdot 10^{-12}}} = 3 \cdot 10^8 \frac{\text{M}}{c} = C$$

u holda (1)ni quyidagicha yozish mumkin.  $\vartheta = \frac{C}{\sqrt{\mu \epsilon}}$

Demak elektromagnit to'lqinlar muxitda tarqalish tezligi vakuumdagi tezligidan  $\sqrt{\epsilon \mu}$  marta kichik.

- Elektromagnit to'lqinlarning differentsial tenglamasi. Ma'lumki elektromagnit to'lqin ikki o'zaro perpendikulyar tekisliklarda yotuvchi sinusoidalar shaklida tasvirlanadi, bunda elektro magnit to'lqin shu ikki tekislik kesishishi natijasida xosil bo'lgan chiziq bo'ylab tarqaladi. Maksvell tenglamasiga asosan o'zgaruvchan elektromagnit maydonining  $E$  va  $H$  kuchlanganlik vektorlari


$$\Delta \bar{H} = \frac{1}{\vartheta^2} \cdot \frac{\partial^2 \bar{H}}{\partial t^2} \quad (1)$$

$$\Delta \bar{E} = \frac{1}{\vartheta^2} \cdot \frac{\partial^2 \bar{E}}{\partial t^2} \quad (2)$$

tipidagi to'lqin tenglamalari qanoatlantiradi. Bunda

$$\Delta \bar{H} = \frac{1}{\vartheta^2} \cdot \frac{\partial^2 \bar{H}}{\partial t^2}$$

- Laplas operatori,  $\mathbf{J}$  -elektromagnit to'lqinining tipidagi to'lqin tenglamalari qanoatlantiradi. Bunda Laplas operatori,  $\mathbf{J}$  -elektromagnit to'lqinining biror muhitdan tarqalish tezligi, s-elektromagnit to'lqinni vakuumda tarqalish tezligi.



- Elektromagnit to'lqinning muhitda tarqalish tezligi, vakuumdagi tezlikdan marta kichik. (2) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$\frac{\partial^2 E_y}{\partial x^2} = \frac{1}{\vartheta^2} \cdot \frac{\partial^2 E_y}{\partial t^2} \quad \frac{\partial^2 H_z}{\partial x^2} = \frac{1}{\vartheta^2} \cdot \frac{\partial^2 H_z}{\partial t^2} \quad (3)$$

Bu tenglamalarning eng oddiy echimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$E_y = E_0 \cos(\omega t - kx + \gamma)$

$H_z = H_0 \cos(\omega t - kx + \gamma)$

yassi monoxramatik elektromagnit  
to'lqin tenglamasi, bunda  $E_0$  va  $H_0$   
mos ravishda to'lqinlarning elektr  
va magnit maydon kuchlanganliklari  
amplitudasi.



$$K = \frac{2\pi V}{\vartheta} = \frac{2\pi}{\vartheta \cdot T} = \frac{2\pi}{\lambda}$$

- to'lqin soni bo'lib u 2 metr uzunlikdagi kesmada joylashadigan to'lqin uzunliklarining sonini ifodalaydi.
- g-tebranishni boshlang'ich fazasi.
  
- **Elektromagnitning to'lqin energiyasi.** Umov-Poynting vektori. Elektromagnit to'lqinlarni payqash mumkinligi (uchun chiqishi, lampochkaning shu'lanishini va hakazo) bu to'lqinlarning o'zi bilan energiya ko'chirib yurishini ko'rsatadi.

- Birlik hajmidagi elektromagnit maydon energiyasi ya'ni elektr maydon energiyasini zichligi

$$\omega_j = \frac{\epsilon\epsilon_0 E^2}{2} \quad (4)$$

va magnit maydon energiyasining zichligi

$$\omega_M = \frac{\mu\mu_0 H^2}{2} \quad (5)$$

yig'indisidan iborat.

$$\omega = \omega_j + \omega_M = \frac{\epsilon\epsilon_0 E^2}{2} + \frac{\mu_0 \mu^2}{2} \quad (6)$$

- Elektromagnit maydonda elektr va magnit maydonlar energiyalarining zichliklari har bir momentda biday bo'ladi, ya'ni  $\omega_e = \omega_m$  u holda (6) quyidagicha yoziladi.

$$\omega = 2\omega_e = 2\omega_m = ee_0 E^2 / mm_0 H^2 \quad (7)$$

Bundan  $\sqrt{\epsilon_0 E} = \sqrt{\mu \mu_0 H}$     (8)

(8) ga asosan (7) ni quyidagicha yozish mumkin

$$\omega = \sqrt{\epsilon_0 \mu_0 \epsilon \mu} E \cdot H \quad (9)$$

- (1) ifodaga asosan (9) ni quyidagicha yozamiz

$$\omega = \frac{1}{\vartheta} E \cdot H \quad \text{yoki} \quad \omega \cdot \vartheta = E \cdot N$$

$\omega \cdot \vartheta = S$  bo'lib  $S$ -birlik vaqtida birlik yuza orqali ko'chirilayotgan energiya ya'ni

$$S = \omega \cdot \vartheta = E \cdot N$$

bu ifodani vektor ko'rinishda  $S = [E \cdot H]$  shaklida yozish mumkin.  $E$  va  $H$  lar o'zaro perpendikulyar bo'lganligi uchun bu vektorlarning vektor ko'paytmasi elektromagnit to'lqinning tarqalish yo'nalishidagi  $S$  vektordir.  $S$  vektorni **Umov-Poynting vektori** deb ataladi.

- **Elektromagnit to'lqinlarning qo'llanilishi.** Elektromagnit to'lqinlar birinchi marta Gers tajribasidan 8 yil keyin 1895 yil 7 mayda rus fizigi A.S.Popov tomonidan amalda qo'llanildi. A.S.Popov rus-fizika-ximiya jamiyati majlisida dunyoda birinchi radiopriyomnikni demonstrasiya tildi va elektromagnit to'lqinlarni simsiz aloqa vositasi sifatida keng ishlatish mumkinligini ko'rsatdi. Diapazoni santimetr va millimetrr bo'lgan elektromagnit to'lqinlar radiolokatsiya (to'lqinlarni to'siqlardan qaytish) da keng qo'llaniladi. Hozirgi paytda fan va texnikaning xech bir soxasi yoki unda elektromagnit to'lqinlar ishlatilmas.
- **Elektromagnit to'lqinlar shkalasi.** Elektromagnit to'lqinlar o'z chastotalari va to'lqin uzunliklariga hamda nurlanish va qayd qilishning usullariga qarab bir necha turga bo'linadi. Bular: radioto'lqinlar, yorug'lik nurlanishi, rentgen nurlanishi, gamma nurlar va x.k.z.

## ■ Nazorat savollari

- 1. Elektromagnit to'lqinlar.
- 2. Elektromagnit to'lqinlarning differentsiyal tenglamasi.
- 3. Elektromagnit to'lqinlarning asosiy xossalari.
- 4. Umov-Pointing vektori.

■ E'tiboringiz uchun  
raxmat